

## Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 4, April 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/2>

### EFFECTIVENESS OF ORGANIZING FIELD PRACTICES IN BIOLOGY AND DIRECTING STUDENTS TO INDEPENDENT WORK

Kusharova Muslima

Student, E-mail: [kusharovamuslima233@gmail.com](mailto:kusharovamuslima233@gmail.com)

Soliyeva Gulnoza Daniyarovna

JDPU, Teacher of the Department of Biology

### BIOLOGIYA FANIDA DALA AMALIYOTLARINI TASHKIL ETISH VA O‘QUVCHILARNI MUSTAQIL ISHLASHGA YO‘NALTIRISHNING SAMARADORLIGI

Kusharova Muslima-talaba

E-mail: [kusharovamuslima233@gmail.com](mailto:kusharovamuslima233@gmail.com)

Soliyeva Gulnoza Daniyarovna

JDPU, Biologiya kafedrasi o‘qituvchisi

#### Annotatsiya

Mazkur maqolada biologiya fanida dala amaliyotlarini tashkil etishda o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodikaning samaradorligi tajriba-sinov asosida o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mustaqil topshiriqlar asosida tashkil etilgan dala amaliyotlari o‘quvchilarning bilim darajasi, kuzatuvchanligi va amaliy ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi.

**Kalit so‘zlar:** dala amaliyoti, biologiya ta’limi, mustaqil ish, kompetensiya, innovatsion metodlar.

## Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 4, April 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/2>

### Abstract

This article examines the effectiveness of a methodology aimed at developing students' independent learning skills during field practices in biology. The study was conducted on the basis of an experimental approach. The results showed that independently organized field activities significantly improve students' knowledge, observation skills, and practical competencies.

**Keywords:** field practice, biology education, independent learning, competence, innovative methods

### Аннотация

В статье рассматривается эффективность методики организации полевых практик по биологии, направленной на развитие самостоятельной деятельности учащихся. Результаты эксперимента показали значительное повышение уровня знаний, наблюдательности и практических навыков учащихся.

**Ключевые слова:** полевая практика, обучение биологии, самостоятельная работа, компетенции, инновационные методы

### Kirish

Zamonaviy biologiya ta'limida o'quvchilarning faqat nazariy bilimlarini oshirish yetarli emas, balki ularni amaliy faoliyatga jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Dala amaliyotlari o'quvchilarda tabiatni bevosita kuzatish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Biroq amaliyotda ko'plab hollarda o'quvchilar passiv ishtirok etib, faqat o'qituvchi ko'rsatmalarini bajarish bilan cheklanib qolmoqda.

Mazkur muammo biologiya fanida dala amaliyotlarini o'quvchilarning mustaqil faoliyatiga asoslangan holda tashkil etish zaruratini keltirib chiqaradi.

## Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 4, April 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/2>

Tadqiqotning maqsadi – dala amaliyotlarini mustaqil topshiriqlar asosida tashkil etish metodikasini ishlab chiqish va uning samaradorligini aniqlash.

**Material va metodlar.** Tadqiqot 2025–2026 o‘quv yilida Jizzax viloyatidagi Mirzacho‘l tumani, 5-umumta‘lim maktablaridan birida 8-sinf o‘quvchilari ishtirokida olib borildi. Tadqiqotda jami 30 nafar o‘quvchi qatnashdi.

O‘quvchilar ikki guruhga ajratildi:

- Nazorat guruhi (15 nafar) – an’anaviy dala amaliyoti asosida
- Tajriba guruhi (15 nafar) – mustaqil topshiriqlar asosida tashkil etilgan dala amaliyoti

Tajriba guruhiga quyidagi topshiriqlar berildi:

- o‘simlik turlarini mustaqil aniqlash
- kuzatuv kundaligini yuritish
- ekologik omillarni tahlil qilish
- natijalar asosida xulosa chiqarish

Natijalar test sinovlari, kuzatuv va tahlil metodlari orqali baholandi.

### Natijalar va tahlil.

Quyidagi jadvalda nazorat va tajriba guruhlarining asosiy ko‘rsatkichlari taqqoslandi:

Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi (%)	Tajriba guruhi (%)
Bilim darajasi	65	90
Amaliy ko‘nikmalar	60	90
Mustaqil ishlash qobiliyati	55	90

## Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 4, April 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaopenaccess.com/index.php/2>

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhida barcha ko‘rsatkichlar sezilarli darajada yuqori natija qayd etdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhida o‘quvchilarning faolligi va qiziqishi sezilarli darajada oshdi.

Tajriba yakunida olingan natijalar:

- Bilim darajasi 25% ga oshdi
- Amaliy ko‘nikmalar 30% ga yaxshilandi
- Mustaqil ishlash qobiliyati 35% ga oshdi

Nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkichlar ancha past bo‘ldi.

O‘quvchilar tomonidan mustaqil ravishda 10–12 tur o‘simlik aniqlanib, ularning ekologik xususiyatlari tavsiflandi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, mustaqil topshiriqlar asosida tashkil etilgan dala amaliyotlari o‘quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtiradi. Bu esa kompetensiyaga asoslangan ta‘lim talablariga mos keladi. Shuningdek, ushbu metod o‘quvchilarda ilmiy-tadqiqot elementlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

### Xulosa

Biologiya fanida dala amaliyotlarini mustaqil faoliyatga asoslangan holda tashkil etish o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar beriladi:

- dala amaliyotlarida mustaqil topshiriqlardan keng foydalanish
- raqamli vositalarni integratsiya qilish
- kuzatuv va tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishga e‘tibor qaratish

## Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 4, April 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/2>

**Ilmiy yangilik.** Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, dala amaliyotlarini o'quvchilarning mustaqil tadqiqot faoliyatiga asoslangan holda tashkil etish metodikasi ishlab chiqildi va uning samaradorligi tajriba-sinov asosida isbotlandi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari. – Toshkent, 2023.
2. Xasanov A.X. Biologiya o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
3. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2019.
4. Bybee R.W. The BSCS 5E Instructional Model and 21st Century Skills. – USA, 2014.
5. Prince M. Does Active Learning Work? A Review of the Research. – Journal of Engineering Education, 2004.
6. Freeman S. et al. Active learning increases student performance in science. – PNAS, 2014.